

O‘ZBEK MILLIY URF-ODATLARI VA ULARNING JAMIYTADAGI O‘RNI

Umarova Mashhura Valijon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek tili Adabiyoti universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 4-bosqich talabasi

mashhura6@gmail.com

+998958902804

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali o‘zbek milliy urf-odatlari va ularning Ojamiyatdagi o‘rni, shuningdek o‘zbek milliy an‘analarimizni kelib chiqish tarixi va bunda mahallalarning o‘rni muhimligi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Shu bilan birgalikda O‘zbekiston hududida o‘tkazilayotgan milliy marosimlarning o‘xshashligi va o‘ziga hos farqlari, umrboqiy qadriyatlarni asrashda xalq og‘zaki ijodi va adabiyotining ahamiyati haqida ham ma‘lumotlar berilgan. Shu bilan birga xalqaro munosabatlarda o‘z qadriyat va an‘analarga ega bo‘lishning afzalliklari haqida ham fikr yuritilgan*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek milliy urf-odatlari, an‘analar, mahallalar, milliy marosimlar, qadriyatlar, og‘zaki ijod, adabiyot, xalqaro munosabatlar.*

Аннотация: *Узбекские национальные традиции развиваются на протяжении веков и являются неотъемлемой частью культурного наследия нашего народа. В этой статье мы рассмотрим историю происхождения узбекских национальных обычаев, роль местных общин и их значение в обществе. Мы также обсудим сходства и отличия национальных праздников, проводимых на территории Узбекистана, а также важность устного народного творчества и литературы в сохранении вечных ценностей. Кроме того, будет подчеркнута значимость сохранения наших ценностей и традиций в международных отношениях*

Ключевые слова: *узбекские национальные традиции, обычаи, местные, общины национальные праздники, ценности, устное творчество, литература, культура, социальная гармония, международные отношения.*

Annotation: *Uzbek national traditions have developed over centuries and are an integral part of our cultural heritage. This article explores the history of Uzbek national customs, the role of local communities, and their significance in society. It will also discuss the similarities and unique differences of national celebrations held in Uzbekistan, as well as the importance of oral folk creativity and literature in preserving timeless values. Additionally, the significance of maintaining our values and traditions in international relations will be highlighted*

Keywords: *uzbek national, traditions, customs, local communities, national celebrations, values, oral creativity, literature international relations.*

Kirish. Aytish joizki, hozirgacha saqlanib kelinayotgan milliy-urf odatlarimiz bizdan oldin yashab o‘tgan ota-bobolarimiz kundalik hayotida yaqin insonlari, mahalla -ko‘y, yor-u birodarlari bilan birgalikda o‘tkazgan marosim va yig‘inlarida bir-birlariga hadyalar ulashishi, do‘stona munosabatlar o‘rnatishi natijasida paydo bo‘lgan. Rivojlanib kelayotgan jamiyatda o‘zbek xalqi milliy urf-odatlarga sodiqligini to‘ylarda, diniy marosimlarda, hosildorlik yig‘inlarida va mavsumiy bayramlarda namoyon qilib kelmoqda. Aniqroq qilib aytganda, to‘ylarimizda kelinsalom berilishida kelinchak tomonidan, yosh kelin va kuyovning chimildiqqa kiritilishida ham ramz ma’no yashirin. Muqaddas dinimizda Qurbon Hayitining nishonlanishi buning belgisi va natijasi o‘laroq odamlarning qo‘y so‘yib xayr-ehson qilishi, hayitlik sifatida yaqin qarindoshlariga sovg‘a salomlar ulashishi ham yorqin misol bo‘la oladi. Bundan tashqari, fasllar kelinchagi bo‘lmish bahor fasli kirib kelganda o‘tkaziladigan Navro‘z bayramida bayramning ko‘rki bo‘lmish sumalak taomi tayyorlanadi mahalladagi yosh qizchalar milliy do‘ppilar bilan adras va atlas ko‘ylaklar kiyib bahoriy aytishuvlar qilishadi. Bunday marosimlar o‘zbek milliy urf-odatlarining yorqin namunasi. Navro‘z va Qurbon hayitining kelib chiqishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘zbek xalqining zamonaviy etnogenezi nafaqat turkiy balki eroniy zabon qabilalardan shakllanganligi vaqt o‘tgan sayin o‘zbek madaniyatida butparastlik va musulmonlik an‘analarini birlashishi tufaylidir. Shuningdek, o‘zbek xalqining ko‘p urf-odatlari omma orasida keng yoyilishida oila va mahalla boshlang‘ich bo‘g‘in vazifasini o‘taydi. Bilamizki, oiladagi kichik yoshli a‘zolarga oila tayanchi bo‘lmish katta insonlarga bobo buvilarga doim hurmat ko‘rsatish o‘rgatiladi. Bundan tashqari mahalladagi qo‘ni-qo‘shnilar birgalikda yig‘ilib hashar tashkillashtiradi albatta bunday sa‘y-harakatlarning asosiy vazifasi mahallani obod qilish bilan bir qatorda odamlar orasida birodarlik rishtalarini mustahkamlashdir. Milliy qadriyatlarimizni o‘rnini oltindan ham yuqori qo‘ysak arziydi, chunki ular bizga ota-bobolarga ehtirom ko‘rsatish, yurtga sadoqatli bo‘lishni o‘rgatadi.¹³³

Milliy marosimlardagi xilma-xillik. O‘zbek xalqi nafaqat moddiy manbalar va qadimiy joylarga boy diyorligi bilan balki mamlakatda joylashgan voha va vodiylarda o‘ziga xos kichik farq bilan o‘tkaziladigan qadimiy an‘analari mavjudligi bilan ham tarixan boy xalq

1. ¹³³ Bahodir Sarimsoqovning “Badiiylilik asoslari va mezonlari” risolasi 115-bet 2022.

hisoblanadi. Bu farqlarni to‘y va marosimlar misolida ko‘rish mumkin. Misol uchun, Qashqadaryo, Surxondaryo taraflarda qiz uzatayotgan oila to‘yga baxshilar chaqirib dostonlar aytiradi. Sunnat to‘ylarida xonadon egalari to‘y munosabati bilan xalqqa ko‘pkari beradi va bu urf-odatlar vohta taraflarda juda ham keng yoyilgan. Andijon, Namangan Farg‘ona taraflarda to‘ylarda To‘y oshiga ko‘proq urg‘u berilishi xalqqa osh tarqatishilishi Fotiha to‘ylarini uyushtirish saqlanib qolgan.¹³⁴

Qadriytni saqlashda adabiyotning o‘rni. Adabiyot milliy qadriyatlarni yozma shaklda saqlab qolishda ishonchli manba sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham adabiyotda milliy qadriyatlar bilan uyg‘un holda asar yaratish bu haqida ma‘lumot berish keng yoyilgan. O‘zbek xalqining juda ko‘p milliy urf-odatlari qatoriga kirgan doston, o‘lan, yalla, lapar maqollar aytish xalq og‘zaki ijodida namoyondir. Xalq og‘zaki ijodida an‘anaviylik ham mavjud shu jihatdan uni uch yo‘nalishda tahlil qilish o‘rinli bo‘ladi. Birinchidan, ming yillardan buyon maqoldan topishmoqqacha qo‘shiqdan dostongacha bo‘lgan asarlar og‘zaki an‘anada yaratilmoqda og‘zaki tarzda yashab keloqda. Ikkinchidan folklor asarlarning ijro qilinish vaziyati to‘y va boshqa vaziyatlar ijro usuli jihatdan an‘anaga ega. Uchinchidan, an‘anaviylik og‘zaki asarlarning matnida namoyon bo‘ladi. Qo‘shimcha tariqasida adabiyotdagi mavsumiy marosim folklorlari va oilaviy marosim folklori haqida ham aytib o‘tish o‘rinli. Mavsum deganda asosan yil fasllari nazrda tutiladi. Binobarin, mavsum qo‘shiqlari qish, bahor, yoz kuz fasllari bilan bog‘liq. O‘zbek mavsumiy marosimlariga qish faslida do‘stlar bilan o‘tkaziladigan “gap gasht” “Dangana” “O‘tirmisha” kabilar yorqin misoldir.³¹³⁵ Qadriyatlarimizni keng yoritish va namoyon qilishda dostonlarimiz ham katta o‘rin egallagan. Bular orasida Kuntug‘mish va Go‘ro‘gli dostonlari, o‘zbek adabiyoting yorqin namunasi bo‘lgan Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidagi ba‘zi epizodlar misol tariqasida mehmon kutish dasturxon bezash an‘analari, kuyov yani Otabekning kelin uyiga sovg‘alar jo‘natishi, qizga mahr berishi jarayonlari ham asarda milliy qadriyatlarimizni sezilarli ochib bergan. Shu jumladan, Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida urf-odatlarni yaxshi yoritib bergan holda shunday jumalarni ham aytib o‘tadi. Bir xalqning qadri, uning urf-odatlari va tarixiy xotirasi bilan belgilanadi. Milliy an‘analarga egaligimiz va ularga sodiqligimizni ko‘rsatish xalqaro miqyosida o‘z o‘rnimizni topishda ham poydevor vazifasini o‘taydi.⁴¹³⁶

2. ¹³⁴ Omonulla Madayevning “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” kitobi “Mumtoz So‘z jamiyati” cheklangan jamiyati nashriyoti 26-bet.
3. ¹³⁵ <https://the-steppe.com/razvitie/bilishimiz-kerak-bo-lgan-5-o-zbek-urf-odatlari> online sayti.
4. ¹³⁶ <https://oyina.uz/uz/teahause/1916> oyna jurnali.

Dalil tariqasida yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlarning fikricha o‘zbek xalqi juda ham mehmondo‘st madaniy meros va qadriyatlarga boy xalq deb bilishadi, ular buni milliy liboslar bilan o‘tkazgan Navro‘z bayramimizda sezishgan va bu jarayonlar ularda kata qiziqish uyg‘otgan davlatimizga qayta tashrif buyurishlariga ham sabab bo‘lgan. Bundan tushuniladik, xalqni xalq qilib ko‘rsatadigan belgilardan biri qadriyat va an‘analarning mavjudligi va bunda hamma jon dildan ergashishi lozimligidir.

Milliyligimizga xalqaro sahnadan nazar. Milliy madaniy mersosimiz va urf-odatlarimizni xalqaro miqyosda namoyon etilishi jadal yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu bo‘yicha xalqaro shartnomalar imzolanib o‘tkazilayotgan ilmiy konferensiyalar qadriyatlarimizni aks ettiruvchi madaniy ko‘rgazmalar yaqqol misoldir. Misol uchun, YUNESKO ning nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitasi 2019-yil 12-dekabrda “Xorazm lazgi raqsi”ni Insoniyatning nomoddiy madaniy merosining representativ ro‘yxatiga kiritgan edi. Bunday ijobiy harakatni ham madaniy merosimizni asrash uchun qilinayotgan harakat deb ayta olamiz. Xalqaro ko‘rgazmalarning ochilishida “Lazgi – Muhabbat va qalb raqsi” spektaklini namoyish etish ajoyib an‘anaga aylanganini ham aytib o‘tish keraklidir. “YUNESKO”ning Butunjahon merosi dastlabki ro‘yxatiga kiritilgan “Namuna” va “Hasti Imom” tarixiy mahallalarida art-rezidensiyalari tashkil etilib kelinmoqda tantanali ochilish marosimlarini o‘tkazilinayotganligini ham aytish joiz. Bunday harakatlar madaniy merosimizni asrab-avaylash yo‘lidagi muhim qadamdir.⁵¹³⁷

Xulosa . O‘zbek xalqining milliy urf-odatlari va marosimlari, tarixan, o‘zining chuqur ildizga ega bo‘lib, ota-bobolardan meros bo‘lib qolgan qadriyatlarimizni saqlash va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu urf-odatlar, to‘ylarda, diniy marosimlarda, mavsumiy bayramlarda, oilaviy an‘analarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlarimiz o‘zbek xalqining jamiyatdagi birlik va hamjihatlikni mustahkamlashga, yurtga sadoqat va ehtiromni oshirishga xizmat qiladi. Bu qadriyatlar nafaqat xalqning ichki madaniyatini, balki uning xalqaro miqyosda tanilishiga ham imkon yaratadi. Adabiyot va xalq og‘zaki ijodi milliy qadriyatlarni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishda ishonchli manba sifatida xizmat qilmoqda. Shuningdek, o‘zbek milliy urf-odatlarining xalqaro miqiyosida e’tirof etilishi, ularga qiziqish va hurmatning oshishi xalqimizning madaniy merosini asrab-avaylashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Natijada, milliy an‘analarga sodiqlik, o‘zbek xalqining madaniy salohiyatini mustahkamlash va global sahnada tanitishda asosiy omil bo‘lib kelmoqda.

5. ¹³⁷ <https://oyina.uz/uz/teahouse/1916> oyna jurnali.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bahodir Sarimsoqovning “Badiiylik asoslari va mezonlari”risolasi 115-bet 2022.
2. <https://oyina.uz/uz/teahause/1916> oyna jurnali.
3. <https://the-steppe.com/razvitie/bilishimiz-kerak-bo-lgan-5-o-zbek-urf-odatleri> online sayti.
4. <https://www.linkedin.com/in/gayane-umerova>.
5. Omonulla Madayevning “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” kitobi “Mumtoz So‘z jamiyati” cheklangan jamiyati nashriyoti 26-bet.
6. To‘ra Mirzayeva, SHomirza Turmidov, Mamatqul Jo‘rayev, Jabbor Eshonqulov, Abdurahmon Tilayevlar tomonidan yozilgan “O‘zbek Folklor” ilmiy qo‘llanma “Tafakur-bo'stoni” 44-bet 2013.